



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 24-yanvar

27-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-yanvardagi 1-son qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-yanvardagi 1-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2025-yil 22-yanvardagi 25-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-yanvardagi 1-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2025-yil 22-yanvardagi 25-6-0-Q/25-sonli qarorlari asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda -vazirlik) tizimidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich autsorsing usulida ovqatlantirish tizimiga o‘tkazishi;

“Yagona mavsumiy taomnoma”ni joriy etish hamda oziq-ovqat xarajatlarining (natura ko‘rinishida) hisobini “Bolalar bog‘chasi” maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida yaratilgan modullar orqali yuritishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda - davlat MTTlari) tarbiyalanuvchilarni “Yagona mavsumiy taomnoma” asosida respublika hududlari kesimida bir tarbiyalanuvchi uchun kunlik ovqatlantirish xarajatini belgilash orqali ovqatlantirish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

vazirlik huzurida davlat muassasasi shaklida Ta’lim sohasida ovqatlantirishni tashkil etish va nazorat qilish markazi (keyingi o‘rinlarda - Markaz) tashkil etilganligi;

quyidagilar Markazning asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilanishi;

davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishni muvofiqlashtirishi;

ovqatlantirishni tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarni bosqichma-bosqich raqamlashtirishi; autorsing asosida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda davlat xaridlarini amalga oshirishi; maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishi;

autorsorser tomonidan tayyorlab berilayotgan taomlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiqligini hamda investitsiya majburiyatlariga rioya etilishini monitoring qilishi;

belgilanishicha;

a) Markazning cheklangan boshqaruv shtat birliklari soni 36 tani tashkil qilishi hamda Vazirlik tizimining umumiy shtat birliklari doirasida shakllantirilishi;

b) Markaz xodimlariga Vazirlik xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etilishi;

bunda:

Markaz direktorining lavozim maoshi Vazirlik departamenti direktori lavozim maoshiga, direktor o'rinbosarining lavozim maoshi Vazirlik boshqarma boshlig'i lavozim maoshiga, tarkibiy bo'linmalar boshliqlarining lavozim maoshi Vazirlik bo'lim boshlig'i lavozim maoshiga, boshqa mutaxassis xodimlarning lavozim maoshi Vazirlikning tegishli darajadagi mutaxassislari lavozim maoshiga tenglashtirilishi;

markazga mahalliy va xorijiy mutaxassislarni to'g'ridan-to'g'ri fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida jalb etishga ruxsat berilishi;

d) Markazga davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovining 1 foizi yo'naltirilishi hamda ushbu mablag'lar sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, xodimlarni rag'batlantirish, malakali mutaxassislarni jalb qilish hamda davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun oshxona jihozlarini xarid qilishga sarflanishi;

vazirlik ikki hafta muddatda Markaz to'g'risidagi nizomni tasdiqlab, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazishi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda maxsus axborot portali orqali davlat xaridlari elektron tizimlarida:

markaz tomonidan tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari nomidan davlat xaridlari jarayonini amalga oshirish uchun davlat xaridlari elektron tizimlarida reja-jadvallarni joylashtirish, xarid hujjatlarini elektron shaklda ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash hamda e'lon joylashtirishi;

markaz tomonidan o'tkazilgan davlat xaridlari jarayonlari yakunlariga ko'ra tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari va g'olib bo'lgan autorsorserlar bilan imzolangan elektron shartnomalarni tuman (shahar) g'aznachilik xizmati bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazishi;

markaz tomonidan ovqatlantirishni tashkil etish yuzasidan davlat xaridlari jarayonini amalga oshirish uchun tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga kelgusi davr uchun

outsorserlarni belgilashda mablag‘lar budjetdan rejalashtirilmagan taqdirda, mazkur xaridlar bo‘yicha e‘lonlarni joylashtirish imkoniyatlarini yaratishi;

Davlat MTTlari tarbiyalanuvchilarning sog‘lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishini ta‘minlash maqsadida:

a) 2025-yil 1-iyulga qadar Vazirlik hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoatchilik salomatligi qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan “Yagona mavsumiy taomnoma” joriy etilishi;

bunda davlat MTTlarida “Yagona mavsumiy taomnoma” asosida oziq-ovqat xarajatlarining (natura ko‘rinishida) hisobi “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimida yaratilgan modullar orqali yuritilishi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimiga Elektron hukumatning idoralararo ma‘lumotlar uzatish tarmog‘i orqali avtomatik tarzda yuborilishi;

b) davlat MTTlarida “Yagona mavsumiy taomnoma” asosida bir tarbiyalanuvchi uchun kunlik ovqatlantirish xarajati hududlar kesimida quyidagi tartibda belgilanishi:

respublika hududlari bo‘yicha tegishli oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rtacha bozor narxlari (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tomonidan Vazirlikka har yili 1-sentabrga qadar taqdim etilishi;

oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rtacha bozor narxlari hamda “Yagona mavsumiy taomnoma”da ko‘rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari meyorlaridan kelib chiqib, Vazirlik tomonidan har bir xudud bo‘yicha bir tarbiyalanuvchi uchun kunlik ovqatlantirish narxi shakllantirilishi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanishi;

kelgusi moliya yili uchun oziq-ovqat xarajatlari uchun mablag‘larni rejalashtirishda, bir tarbiyalanuvchi uchun tasdiqlangan kunlik ovqatlantirish narxiga iste‘mol narxlari indeksi koeffitsiyenti qo‘llanilishi;

belgilab qo‘yilishicha;

a) barcha davlat MTTlari ovqatlantirishni tashkil etish usulidan qat‘i nazar, bir tarbiyalanuvchi uchun kunlik ovqatlantirish narxiga majburiy tartibda rioya qilishi;

bunda moliya yili davomida oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari alohida holatlarda oshganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining narxlar oshganligining aniq sabablari ko‘rsatilgan takliflariga ko‘ra davlat MTTlarining bir nafar tarbiyalanuvchisini bir kunda sog‘lom ovqatlantirish narxi Vazirlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkinligi;

b) outsorser tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmat bo‘yicha taklif va shikoyatlar jamoatchilik nazorati hamda ota-onalar tomonidan Markazning “QR-Feedbask” axborot tizimi orqali kiritib borilishi;

Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-dekabrda 848-son qarorining 3-bandi to‘rtinchi xatboshisidagi “2 foiz” so‘zlari “1 foiz” so‘zlari bilan almashtirilishi;

vazirlik:

a) 2025-yil 1-martga qadar budjet xarajatlarini rejalashtirish uchun 2025 moliya yilida outsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirish tashkil etiladigan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari sonini hududlar kesimida belgilanishi;

b) 2025-yil 1-iyulga qadar sogʻlom ovqatlantirish tashkil etiladigan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tadbirkorlik subektlari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzilishini va autsorsing usulida sogʻlom ovqatlantirish yoʻlga qoʻyilishini taʼminlashi;

bunda respublika hududlari boʻyicha tegishli oziq-ovqat mahsulotlarining 2025-yil uchun oʻrtacha bozor narxlari (qoʻshilgan qiymat soligʻi bilan) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tomonidan Vazirlikka 2025-yil 1-aprelga qadar taqdim etilishi;

d) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirishi;

belgilanishicha, mazkur qaror ijrosi uchun talab etiladigan mablagʻlar Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutib borilishi;

Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblanishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi, Gʻaznachilik xizmati tuman boʻlimi (M.Najmiddinov) tegishli oziq-ovqat mahsulotlarining oʻrtacha bozor narxlari (qoʻshilgan qiymat soligʻi bilan) Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-yanvardagi 1-son qarorida koʻrsatib oʻtilgan muddatlarda taqdim etsin.

4. Tuman Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi (O.Xujayev) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-yanvardagi 1-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov